

TIBBIYOT UNIVERSITETLARIDA XORIJIY TALABALARGA TIBBIYOT TERMINLARINI O'RGATISHDA SAMARALI METODLARIDAN FOYDALANISH

Mamanova D.U.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, Uzbekistan ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРЕПОДАВАНИЯ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ ИНОСТРАННЫМ СТУДЕНТАМ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ

O'zbekiston suveren-demokratik mamlakatlar qatorida ekan, uning o'z davlat ramzlari o'z mentaliteti, o'z ona tili, o'z madaniyati va qadriyatlari mavjud. Buni boshqalarga yoyishning eng samarali yo'li birinchidan, o'z tili, ikkinchidan kishining xulq-atvori orqali amalga oshiriladi. Qay holatda bo'lsin, kishilar o'z so'zlari va gaplari bilan notanish odamga kimligini tanita oladi. Ya'ni kimdir o'zga tillardan qaysi birini bilib shu orqali boshqalar bilan muloqot qilar ekan u jarayonda yurti va uning insonlari, turmush tarzi va madaniy-ma'naviy holat hamda vaziyat haqida xohlasa-xohlamasa aytib qo'yadi. Shunday ekan biz o'zbek tilini boshqalarga o'rgatish orqali ham tilimizni ham madaniyatimizni tarqatishimiz mumkin. Buni amalga oshirish uchun yurtimizda yaxshigina imkoniyatlar bor. Xususan, hozirgi kunda turli chet el fuqarolarining O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishlari uchun keng imkoniyatlar ochilgan. Hamda ular ham katta qiziqish va ishtiyoq bilan tahsil uchun kelmoqda. Shulardan eng talab kuchli bo'lgan tarmoq meditsina ya'ni tibbiyotdir. Tibbiyot universitetlari talabalariga o'zbek tilini o'qitish va shu orqali o'z madaniyatini tarqatish shuningdek, tilning mavqeini oshirish uchun juda muhim imkondir. Bundan tashqari ular uchun bu tilni o'rganishning muhimlik va keraklilik darajasi quyidagicha:

Birinchidan, ular yurtimizda olti yil davomida ta'lim olishadi. Bu davrda faqatgina mahalliy aholining kam sonli so'z yoki so'z birikmasi yoki gaplarigagina tushuna oladi. (qo'shimcha ta'limsiz)

Ikkinchidan, agarda qaysidir talaba qiziqishi kuchli bo'lsa, o'zi mustaqil yoki qo'shimcha kurs olib o'qishi kerak. (Unda ham ular uchun o'z tilida yoki ingliz tilida gaplasha va tushuntira oluvchi ustoz yoki do'st, electon programma yoki ilova yo bo'lmasa darslik kerak bo'ladi.)

Uchinchidan, tibbiyot universiteti talabalari turli xil mahalliy shifoxonalarga amaliyot o'tash uchun borishishadi, chunki ulaming ta'lim jarayonidagi asosiy tomon tajriba va o'zining ko'nikmasini shakllantirish kerakligidir va ular ushbu jarayonni tez va aniq anglash uchun ham o'zbek tilini o'rganishi asosiydir.

To'rtinchidan, mahalliy yetik bilim egalari(shifokorlar)ning saboqlarini olish va ta'lim va tajriba orttirish uchun ham mahalliy ona tilimizni bilishi lozim. (Negaki ko'pchilik professional doktorlar ko'proq rus tilini bilishadi. Bugun Samarqand davlat tibbiyot universitetida xorijlik talabalaming asosiysi hindistonlik va pokistonlik talabalar bo'lgani uchun ulaming ikkinchi tili ingliz tilidir. Rus tilini ba'zilar kam sonli so'zlarini bilmasa bu tilga ham tushunmaydilar.)

Bugungi kunda Samarqand davlat tibbiyot universitetida Xalqaro ta'lim fakulteti talabalari uchun ham bir semestrda mo'ljallangan o'zbek tili (Uzbek language) dars soatlar ajratilgan bo'lib, ularga o'zbekcha tibbiyot atamalarini o'rgatishda samarali metodlardan

foydalanib kelinmoqda. Talabalar Hindiston va Pokistondan bo'lganligi uchun o'zbek tilini o'rganishlari anchayin yaxshi kechmoqda. Chumki, ularda ko'p tillilik mavjud bo'lib, asosiy qismi hindlar hamda ular hind va urdu tilini ham bilishadi. Buni keltirishimizning sababi urdu tili arab yozuvi va tili asosiga qurilgan. O'zbek tilida ham arab tilidan 50% dan ortiq so'zlar kirib kelib o'z qatlamni tashkil etmoqda. Ya'ni m, b, h, v. tutuq belgisi kabilar ishrirok etgan so'zlar arabiy so'zlar hisoblanadi. Shunday ekan, bu tillarning asosida, so'zlar shaklida bir xillik mavjud va bu o'rganish hamda o'rgatish uchun ancha yengillikni ta'minlaydi.

Shuningdek, o'zbek tiliga kirib kelgan yangi so'zlar asosini inglizcha o'zlashmalar tashkil etadi. Xorijiy talabalarga ta'lim tili esa ingliz tilidir. Yana bir muhim jihat tibbiyotga aloqador so'zlar. dori nomlari, tibbiy atamalar lotin tilidan kirib kelgani uchun ular muntazam ravishda lotin tilini ham o'rganishadi. Bu sabablardan va o'xshashliklardan unumli foydalangan holatda o'z ona tilimizni va o'z madaniyatimiz va o'zimiz haqimizda ularda ijobiy oyna shakllantirishimiz uchun asosiy jihatlardan biridir.

Tibbiyot atamalarini dars davomida shunchaki lug'at (vocabulary) shaklida yodlash uchun bermay, balki topshiriq-task, interaktiv va zamonaviy ta'lim metodlari (modern educational methods) shaklida o'rgatilsa, hamda talabalarning o'zlari ko'p marotaba takrorlab o'rgansa yod olish va undan nutq jarayonida foylanishi (using in the speech) ham oson bo'ladi. Ya'ni o'zbek tili darsida tibbiyot terminlarini (medical terminology) quyidagi tartibda tushuntirish va mustahkamlash samarali usullar va metodlar hisoblanadi.

1. Dars jarayonida o'tilgan grammatik va leksik mavzudan keyin faqatgina o'zbek tilidagi so'zlarni lug'at daftarlariga ko'chirish (write and copy) uchun beriladi.

2. Keyin elektron lug'at (uzbek-english dictionary) yordamida ular so'zlarni ingliz tiliga tarjima qilishadi.

3. Masalan so'zlar quyidagi shaklda ikki qismga bo'lib o'rgatiladi:

4. Tajjima qilgandan so'ng o'qituvchi ularni to'g'riligini tekshirish (for checking) uchun tajjimalardan so'z tajjimasini (translation form) so'rab chiqadi va xato tajjima bo'lsa to'g'ri va maqbul variantlarni aytadi.

5. Keyingina so'zlarning talaffuzini (pronunciation) o'rgatadi va ularni yodlash (for memorising) uchun o'xshash misollar keltiradi va talabalarda u so'zlar haqida tasavvur (imagination) uyg'otadi.

6. Grammatik va leksik mavzu va topshiriqlarga qo'shimcha qilib bu yangi so'zlar yod olish uchun beriladi va keying darsda birma-bir so'zlarning yodlanganlik darajasi tekshiriladi.

7. Shuningdek xotirada bu so'zlarni qolishi uchun kamida o'n marta bola foydalanishi lozimligi uchun avvalo "texnik krasvord" berilib to'ldirtiriladi. Keyin "Top orqali yodlash" da o'qituvchi talabalarga tennis kaptokini otib o'zbekcha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha shaklini so'rab mustahkamlaydi. Yana boshqa usuli "Kim ko'p tibbiyot terminini biladi." o'yinini tashkil etib, alohida varaqlarga bilganlarini yozib tekshirish yo'li va boshqa juda ko'plab turli tuman aqliy tnetodlardan foydalanish mumkin.

8. Ikki darsdan keyin esa ulardan shu so'zlar bo'yicha lug'at diktant (vocabulary dictation) o'zbek tibbiyot atamalari asosida olinib yana bir marta mustahkamlanadi va shu orqali talabalar o'sha so'zlarni yana bir esga oladi. Agarda yodidan ko'tarilgan bo'lsa o'qituvchi tomonidan aytiladi va yana bir bora tekshiriladi va baholanadi.

Albatta, yangi til o'rganish juda ham ajoyib jarayon va har bir kishi yangi til o'rganishni xohlaydi. Bundan tashqari o'zi o'rganayotgan tilda kim bilandir gaplashib yana ham yaxshi o'zlashtirib olishi mumkin. Shuningdek, tilga mehr uyg'otishda pedagogning

ham hissasi taxminan 95 % ni tashkil etadi va yangi tilni o'rgatish uchun o'rgatuvchidan katta mahorat talab etiladi hamda u orqali talabalar o'rganar ekan, ularda:

- Birinchidan, tilga qiziqish uyg'otish kerak.
- Ikkinchidan, dars davomida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalangan holda tushuntirish muhimdir.

Uchinchidan, tilga hurmatini oshirish va ulami rag'batlantirish ham tadqiqot va o'qitish, dars jarayonida ustun tomondir. O'zbek tilini tibbiyot ta'lim muassasalarida o'rgatish shunday ajoyib va murakkab, yuksak mahorat va fidoiylilik talab qiladigan ta'lim turi hisoblanadi.

Xullas, tibbiyot universitetlarida xorijdan kelgan talabalarga til o'rgatish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu orqali ham tilning o'z maqomida yangilanishlar yuzaga keladi va shu orqali ham pedagog ko'p ter to'kadi, o'z ustida ishlaydi va shu orqali yangidan yangi ilovalar yaratilsa, bu ilova bilan o'zbek tilini o'rganuvchilar safi kengayadi.

Список литературы.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori bilan tasdiqlangan. 4-bet.
2. Tog'ayev.T. Tavaldiyeva.G. Akromova.M. O'zbek tilining imlo lug'at. Toshkent; "Sharq" 2015. 18-29-49- 178-betlar.
3. Mamanova.D. O'zbek tili ma'zura matni Samarqand 2024. 12-35-betlar.
4. O'zbekcha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha lug'at.
<https://play.google.com/store/apps/details?id=com.amaItranslator.uzbekenglish&hl=ru&gl=US&pli=l>

FORMATION OF STUDENTS' SCIENTIFIC STYLE OF SPEECH IN TEACHING ENGLISH

Mezgilbayeva Z.M., Vnasbayeva GA., Salpebayeva S. T.

Казахский Национальный медицинский университет имени С. Д.
Асфендиярова, Алматы, Казахстан

Introduction. In the structure of foreign language professional communicative competence, academic literacy occupies an important place, being one of the main indicators of the quality of training a modern specialist in the higher education system. Linguodidactics considers academic literacy primarily as the mastery of academic discourse - receptive and productive skills of oral and written academic speech, a certain way of thinking that meets the requirements of a given cultural environment, the ability to think critically, which is necessary for the implementation of academic - educational and scientific - activities. In addition, of paramount importance for the formation of academic literacy is the ability to increase one's self-educational competence, that is, the readiness for autonomous cognitive activity and lifelong education, the ability to independently set learning goals and look for ways to achieve them (Abdybekova & Kulgozhaev, 2019).